

STARTAP VA INNOVATION TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA VENCHUR KAPITAL BOZORINING ROLI: YEVROPA ITTIFOQI VA JANUBI-SHARQIY OSIYO TAJRIBASI

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti
Jo'rayev Sherzod Shavkat o'g'li
+998994737897

Annotatsiya. Ushbu maqolada startaplar va innovatsion tadbirkorlikning moliyaviy ta'minotida venchur kapital bozorining o'rnini Yevropa Ittifoqi (YI) hamda Janubi-Sharqiy Osiyo (JShO) davlatlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu mintaqalarning venchur kapital infratuzilmasi, investitsion muhit, strategik rag'batlantirish mexanizmlari va davlat siyosatining startap ekotizimiga ta'siri qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Startaplar; innovatsion tadbirkorlik; venchur kapital; investitsion ekotizim; Yevropa Ittifoqi; Janubi-Sharqiy Osiyo; davlat siyosati; yuqori texnologiyalar; moliyalashtirish modeli; akseleratorlar; raqamli iqtisodiyot; xususiy investitsiyalar; innovatsion infratuzilma.

Kirish. So'nggi o'n yilliklarda global miqyosda startaplar va innovatsion tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Xususan, yuqori texnologiyalarga asoslangan startaplar raqamli platformalar, biotexnologiya, sun'iy intellekt, yashil texnologiyalar va fintech kabi sohalarda yangi qiymat yaratish, bozorlarni transformatsiya qilish hamda raqobatbardoshlikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Bunday loyihalarning rivojlanishi esa, birinchi navbatda, moliyaviy resurslarning mavjudligi va sifatiga bevosita bog'liq bo'lib, ayniqsa, yuqori xavfli va uzoq muddatli investitsiyani talab qiluvchi startaplar uchun venchur kapital bozori alohida ahamiyatga ega.

Venchur kapital — bu yuqori riskli, ammo yuqori rentabelli innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratilgan investitsiya shakli bo'lib, rivojlangan iqtisodiyotlarda innovatsion ekotizimning ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida ushbu bozorning jadal rivojlanishi startaplar uchun qulay muhit yaratish, texnologik innovatsiyalarni tezlashtirish, shuningdek, mintaqaviy va global raqobatni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Yevropa Ittifoqi o'zining institutsional fondlari — European Innovation Council (EIC), European Investment Fund (EIF) va Horizon Europe dasturlari orqali startaplarni tizimli qo'llab-quvvatlab kelayotgan bo'lsa, Janubi-Sharqiy Osiyoda Singapur, Malayziya va Indoneziya kabi davlatlar agressiv investitsion siyosati va raqamli

ekotizimi bilan ventchur kapital oqimlarini jalb qilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Startaplar va innovatsion tadbirkorlikni moliyalashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ventchur kapitalning iqtisodiy o'sish, texnologik rivojlanish va innovatsion faollikni oshirishdagi strategik rolini chuqur asoslab beradi. Klassik tadqiqotlardan biri bo'lgan Kortum va Lerner (2000) o'z ishida ventchur kapital investitsiyalari patentlash darajasini sezilarli oshirishi va innovatsion ekotizimni kuchaytirishini empirik isbotlagan. Bu natijalar ventchur kapitalning startaplar uchun nafaqat moliyaviy, balki texnologik akseleator vazifasini bajarishini ko'rsatadi. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar (WEF, 2023; OECD, 2022) ventchur kapitalning mintaqaviy farqlarini o'rganar ekan, Yevropa Ittifoqi bozorining institutsional jihatdan barqaror, biroq nisbatan ehtiyotkor bo'lgan holda investitsiya kiritish tendensiyasiga ega ekanligini, Janubi-Sharqiy Osiyo esa yuqori riskli, ammo tez o'suvchi bozor sifatida tavsiflanishini ko'rsatadi. JShO davlatlaridagi yosh demografiya, raqamli bozorning kengligi va ko'plab texnologik ehtiyojlar ventchur kapital oqimlari uchun qulay sharoit yaratmoqda.

Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot umumiy ilmiy yondashuvga asoslangan bo'lib qiyosiy tahlil (comparative analysis) – Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo ventchur kapital bozorlari tuzilmasi, moliyaviy infratuzilma, davlat siyosati va startap ekotizimi ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

Induktiv va deduktiv yondashuv – mavjud nazariyalar asosida umumiy xulosalar chiqarildi va empirik ma'lumotlar orqali tasdiqlandi.

Sistemali yondashuv – ventchur kapital bozorining barcha komponentlari (investitsiya muhiti, davlat dasturlari, xususiy sektor, texnologik infratuzilma) bir butun tizim sifatida tahlil qilindi.

Asosiy qism. Ventchur kapital bozori: nazariy asoslar va iqtisodiy ahamiyati. Ventchur kapital (VK) yuqori xavfli, ammo yuqori rentabelli innovatsion startaplarni moliyalashtiruvchi investitsiya shakli bo'lib, iqtisodiy o'sishning texnologik drayveri hisoblanadi. Gompers & Lerner (2004) ta'kidlashicha, ventchur kapital innovatsion loyihalarni nafaqat moliyalashtiradi, balki ularning biznes modeli, boshqaruv sifati va bozorga chiqish strategiyasini takomillashtiradi.

OECD (2023) reytingiga ko'ra, VK bilan moliyalashtirilgan startaplarning omon qolish darajasi o'rtacha 62–70%, an'anaviy kredit bilan xorijiy moliyalashtirilgan startaplarda esa bu ko'rsatkich 30–40% atrofida.

Yevropa Ittifoqida ventchur kapital bozori: institutsional va investitsion mexanizmlar. Yevropa Ittifoqida innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlash ko'p darajali institutsional tizim orqali amalga oshiriladi. EIC, EIF, Horizon Europe dasturlari ventchur kapitalning barqaror oqimini ta'minlab, texnologik startaplarni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. YI ventchur kapital investitsiyalari (2019–2024)

Jadval-1

Yevropa Ittifoqida venchur kapital investitsiyalari (mlrd yevro)

Yil	Investitsiya hajmi (mlrd €)	O'sish sur'ati (%)
2019	38.2	-
2020	41.1	+7.5
2021	64.4	+56.9
2022	54.8	-15.0
2023	57.2	+4.3
2024	61.0	+6.6

Ushbu ko'rsatkichlar pandemiyadan keyingi davrda YIda texnologik startaplarni qo'llab-quvvatlash kuchayganini tasdiqlaydi.

Yevropa bozorining asosiy xususiyatlari

1. Davlat ishtirokining yuqoriligi – Yevropa investitsiyalarining 35–40% davlat fondlari orqali shakllanadi.
2. Texnologik yetakchilik – sun'iy intellekt, biotech, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish sohalari VK investitsiyalarining 45% ini tashkil qiladi.
3. Regional markazlashuv – VK oqimlarining 70% Germaniya, Fransiya, Shvetsiya va Niderlandiya ulushiga to'g'ri keladi.

Janubi-Sharqiy Osiyo venchur kapital bozori: tez o'sayotgan mintaqah. JShO dunyoning eng jadal rivojlanayotgan raqamli bozorlaridan biri sanaladi. Aholining 65% dan ortig'i yoshlar bo'lib, mintaqa VK uchun katta demografik imkoniyat yaratmoqda. JShO venchur investitsiyalari (2019–2024)

2-jadval

Janubi-Sharqiy Osiyo venchur kapital investitsiyalari (mlrd AQSh dollari)

Yil	Investitsiya hajmi (mlrd \$)	O'sish (%)	Yetakchi yo'nalishlar
2019	12.1	-	Fintech, E-commerce
2020	14.6	+20.6	EdTech, HealthTech
2021	25.7	+76.0	AI, LogisticsTech
2022	20.3	-21.0	Fintech
2023	22.9	+12.8	DeepTech
2024	26.4	+15.2	AI, GreenTech

Manba: ASEAN Investment Report (2023), CB Insights (2024)

Mintaqa bozorining asosiy ustunliklari

- Singapur – mintaqaning venchur markazi: Startup SG Equity modeli davlat-xususiy sheriklikni kuchaytiradi.
- Malayziya – soliq rag‘batlari: Innovatsion kompaniyalarga 70% gacha soliq chegirmasi.
- Indoneziya – raqamli gigant bozor: 280 mln aholi va tez kengayayotgan fintech sektori bilan VK uchun yirik platforma.

Tahlil natijalari O‘zbekiston uchun quyidagi xulosalarni beradi.

1. Davlat fondlari va texnoparklar rolini kuchaytirish – YIdagi EIF va EIC modeli o‘rnak bo‘la oladi.
2. Singapur modeli asosida qo‘shma investitsiya fondi yaratish – davlat-xususiy sheriklikni kengaytiradi.
3. Raqamli ekotizimni rivojlantirish – JShOda bu VK oqimining asosiy omili bo‘lgan.
4. Soliq imtiyozlari va innovatsion grantlar – Malayziya tajribasi samarali.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, startaplar va innovatsion tadbirkorlikni moliyalashtirishda venchur kapital bozorining roli strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mintaqalar kesimidagi farqlar investitsion infratuzilma, davlat siyosati va raqamli ekotizim darajasi bilan izohlanadi. Yevropa Ittifoqida venchur kapital bozori institutsionallashtirilgan, davlat fondlari faol ishtirok etadi va innovatsion dasturlar tizimli moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlaydi. Janubi-Sharqiy Osiyoda esa bozor yanada dinamik, xususiy fondlar ustunlik qiladi va raqamli iqtisodiyotning tez o‘sishi VK oqimlarini kuchaytiradi. Tahlillar YI va JShO tajribalarida venchur kapitalning startaplarning innovatsion faolligi, patentlash ko‘rsatkichlari, bozor qiymatini oshirish, xalqaro bozorlar bilan integratsiya hamda yuqori texnologiyalarga asoslangan biznes modellarni shakllantirishga sezilarli ta‘sir ko‘rsatishini tasdiqladi. VK bilan moliyalashtirilgan startaplar an‘anaviy kredit bilan moliyalashtirilgan kompaniyalarga qaraganda o‘shirish sur‘atlari, moslashuvchanlik va innovatsiya intensivligi bo‘yicha sezilarli ustunlikka ega. Shuningdek, raqamli ekotizimning rivojlanganligi, texnoparklar, inkubator va akseleratorlar mavjudligi, soliq rag‘batlari, davlat-xususiy sheriklik modellari venchur kapital bozorining barqarorligi va investitsiya oqimlari hajmiga bevosita ta‘sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo tajribasi O‘zbekiston uchun venchur kapital bozorini shakllantirish va rivojlantirishda amaliy yo‘l xaritasi vazifasini bajarishi mumkin. Tadqiqotdan kelib chiqib, O‘zbekiston sharoitida venchur

kapital bozorini shakllantirish va startaplarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi ilmiy asoslangan takliflar keltiriladi:

1. Milliy Venchur Kapital Fondini tashkil etish

Yevropa Ittifoqidagi EIF modeli asosida davlat-xususiy sheriklikka tayangan holda milliy venchur fondini yo'lga qo'yish innovatsion loyihalarni moliyalashtirish hajmini sezilarli oshiradi.

2. Soliq rag'batlarini takomillashtirish

Malayziya va Singapur tajribasiga asoslanib, VK bilan moliyalashtirilgan startaplar uchun 3–5 yillik soliq imtiyozlari, investorlar uchun kapital daromad solig'idan istisnolar, texnologik startaplar uchun amortizatsiya chegirmalari joriy etilishi maqsadga muvofiq.

3. Akselerator va inkubatorlar tarmog'ini kengaytirish

JShOdagi "Startup SG" modeli asosida, davlat akseleratorlari, universitetlar qoshidagi inkubatorlar, xalqaro texnoparklar bilan hamkorlik loyihalari yo'lga qo'yilishi zarur.

4. Innovatsion ekotizim uchun raqamli platformalar yaratish

Startaplar, investorlar, texnoparklar va davlat agentliklarini birlashtiruvchi yagona raqamli platforma innovatsion bozorning shaffofligini oshiradi.

5. Startaplar uchun grant va subsidiyalar

"Horizon Europe" tajribasidan kelib chiqib, ilmiy-tadqiqotga yo'naltirilgan startaplar uchun grantlar, prototiplash va MVP bosqichini moliyalashtiruvchi dasturlar tashkil etilishi lozim.

6. Xalqaro investorlarni jalb qilish

JShOdagi kabi, xalqaro VK fondlari uchun erkin iqtisodiy zonalarda imtiyozlar, O'zbekistonda "regional hub" (Markaziy Osiyo startap markazi) yaratish investitsiya oqimlarini kuchaytiradi.

7. Kadrlar salohiyatini oshirish

Innovatsion tadbirkorlik bo'yicha, universitetlarda maxsus magistratura yo'nalishlari, VK menejerlari uchun treninglar, xalqaro ekspertlar bilan qo'shma loyihalar joriy etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Metrick, A., & Yasuda, A. (2021). *Venture Capital & the Finance of Innovation*. Wiley.
2. Da Rin, M., Hellmann, T., & Puri, M. (2020). Venture capital and innovation: A cross-country analysis. *Journal of Financial Economics*, 135(2), 493–517.
3. Block, J., Colombo, M., & Cumming, D. (2019). Venture capital in emerging markets. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 43(3), 452–478.